



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



REY BREDBERI VA HOJIAKBAR SHAYXOV IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI

Ko‘chimov Ulug‘bek Qo‘chqarovich

*Alfraganus universiteti Xorijiy tillar kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
dotsent. Toshkent, O‘zbekiston.*

ulugbekkuchimov1975@gmail.com

[Orcid.ID: 0000-0001-7356-4809](https://orcid.org/0000-0001-7356-4809)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17272284>

Annotatsiya. Mazkur maqolada amerikalik yozuvchi Rey Bredberi hamda o‘zbek yozuvchisi Hojiakbar Shayxov ijodidagi fantastik asarlar misolida badiiy psixologizmning shakllanishi, qahramon ruhiy olamining tasviri va adabiy-estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Komparativistik yondashuv asosida milliy va umumjahon qadriyatlar, ayol ruhiyati tasviri, shuningdek, fantastika janrining psixologik komponentlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qiyosiy adabiyot, badiiy psixologizm, fantaziya, R. Bredberi, H. Shayxov, qahramon ruhiyati.

Аннотация. В данной статье на примере фантастических произведений американского писателя Рэя Брэдбери и узбекского писателя Ходжаакбара Шайхова анализируется формирование художественного психологизма, изображение духовного мира героя и его литературно-эстетические функции. На основе компаративистского подхода исследованы национальные и общечеловеческие ценности, изображение женской психологии, а также психологические компоненты жанра фантастики.

Ключевые слова: сравнительное литературоведение, художественный психологизм, фантастика, Р. Брэдбери, Х. Шайхов, психология героя.

Abstract. This article analyzes the formation of artistic psychologism, the portrayal of characters' inner worlds, and literary-aesthetic functions in science fiction works by American writer Ray Bradbury and Uzbek writer Hojiakbar Shayxov. Using a comparative approach, the study examines national and universal values, depictions of female psychology, as well as the psychological components of the science fiction genre.

Keywords: comparative literature, artistic psychologism, fantasy, R. Bradbury, H. Shayxov, character psychology.

Badiiy psixologizm — bu qahramonning ruhiy olamini, ichki kechinmalarini, hissiy va tafakkur jarayonlarini tasvirlash orqali to‘laqonli obraz yaratishning muhim vositasidir. Quronov, Mamajonov va Sheraliyevalarning ta‘rifiga ko‘ra, u “badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri, personaj ruhiyatining ochib berilishi, harakat va nutqlarining psixologik asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalar jamidir” [1:123].

Psixologizmning amaliy shakllari ichki monolog, ong oqimi, psixologik portret, tashqi xatti-harakatlar hamda imo-ishoralar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, N. Shodiev “qalb dialektikasi”ni badiiy psixologizmdagi asosiy usul sifatida e’tirof



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



etib, uning “ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, hissiyotlarning tashqi ekspressiyasi, tush va gallyutsinatsiya” kabi vositalarda ko‘rinishini ta’kidlaydi [2:30].

Adabiyotshunos O. Zolotuxina esa psixologizmning nazariy holatini tahlil qilar ekan, “psixologizm fenomeni, uning tarkibiy qismlari va asar tizimidagi o‘rni haqida to‘liq tasavvur, shuningdek, metodologik aniqlik hali yetarli emasligini” qayd etadi [3:5]. Bu fikr shuni ko‘rsatadiki, psixologizm nafaqat obraz yaratish texnikasi, balki adabiy-estetik kategoriya sifatida ham chuqur tadqiq etilishi zarurdir.

Qiyosiy adabiyot doirasida esa psixologizm hodisasi milliy va g‘arbiy adabiyotdagi o‘xshash va farqli jihatlarni ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, G‘arb adabiyotida J. Joys va M. Prust ong oqimi orqali inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini yoritgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida A. Qodiriy va A. Qahhor ijodida “dinamik va analitik psixologizm prinsiplari” [4:115] uyg‘unlashgan holda milliy ruhiy kechinmalar tasviriga yo‘naltirilgan.

Demak, badiiy psixologizmni faqat tasviriy vosita sifatida emas, balki qahramon ruhiyatining milliy va universal ko‘rinishlarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi nazariy-amaliy konsepsiya sifatida o‘rganish muhimdir.

Rey Bredberining ijodida badiiy psixologizm asarlarning mazmuniy va g‘oyaviy qatlamida alohida o‘rin tutadi. Xususan, “Farengeyt bo‘yicha 451 daraja” romanida inson va jamiyat o‘rtasidagi keskin ziddiyatlar qahramon Montagning ichki kechinmalari orqali yoritiladi. Asar davomida u ong oqimi uslubi, ichki monologlar va tush tasvirlari orqali o‘ziga xos ruhiy parokandalikka duch keladi. Shaxsning davlat nazorati ostida erkin fikrlash imkoniyatidan mahrum bo‘lishi, “inson ruhiyatida qo‘rquv va umidsizlikning doimiy hukmronligi” sifatida aks etadi [5:47].

Shuningdek, “Qoqi gulidan sharob” asarida psixologizm estetik-epik tus oladi. Unda yozuvchi bolalik xotiralari, hayot quvonchi va yo‘qotish fojeasini chuqur ruhiy tasvirlar orqali ochib beradi. Bu yerda ong oqimi va tasavvurlar asosida insonning ichki olamidagi evrilishlar poetik obrazlar vositasida aks etadi.

“Marsga hujum” kitobida esa insonning kosmik kenglikka chiqishi nafaqat fantastik tasavvur, balki psixologik tajriba sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning Mars bilan ilk uchrashuvi, begona muhitda o‘zini anglash jarayoni, “insonga xos qo‘rquv, hayrat va yolg‘izlik hissi” [6:15] orqali ifodalangan. Bredberining fantastik asarlarida psixologizm texnika va sivilizatsiya xavfi bilan uyg‘unlashib, insoniy qadriyatlarni himoya qilish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbek yozuvchisi Hojiakbar Shayxov ijodida badiiy psixologizm milliy an’analar va ruhiy-ma’naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Uning Tutash



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” *mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya*



olamlar” asarida qahramon ruhiyati ijtimoiy muhit va milliy mentalitet bilan uygʻun tasvirlanadi. Qahramonlarning botiniy olamidagi ziddiyatlar tashqi konfliktlar bilan chambarchas bogʻliq holda ochib beriladi.

Ikki jahon ovorasi qissasida inson ruhiyati diniy-falsafiy izlanishlar kontekstida talqin qilinadi. Qahramonlarning “ma’naviy kechinmalari, ezgulik va yovuzlik oʻrtasidagi kurash jarayonida shakllanadi” [7:102]. Bu ruhiy tasvirlar milliy dunyoqarash va diniy qadriyatlar bilan mustahkamlanadi.

Shayxovning “Olovdan chiqqan odam” hikoyasida esa ayol obrazlari alohida eʼtibor qozonadi. Ayollarning ruhiy kechinmalari “milliy qadriyatlar va oila-ijtimoiy munosabatlar oʻrtasidagi murakkab ziddiyatlarda yoritiladi. Shu orqali yozuvchi fantastik asarni milliy psixologik xususiyatlar bilan boyitadi.

Bredberi va Shayxov asarlarida psixologizmning umumiy va farqli jihatlari yaqqol koʻzga tashlanadi.

Xususan, har ikkala yozuvchi fantastik voqealarni qahramon ruhiyati bilan boyitadi; insoniyat taqdiri, texnologiya xavfi va ruhiy erkinlik masalalariga eʼtibor qaratadi. Bu jihatdan ularning asarlari umumjahon tamoyillarini milliy oʻziga xoslik bilan uygʻunlashtiruvchi” xususiyatlarda mushtarak jihatlar ega.

Shu bilan birga Bredberida asosan gʻarb sivilizatsiyasi tanqidi, axborot senzurasini va texnologik nazorat orqali shaxs erkinligining yoʻqolishi yoritiladi. Shayxovda esa diniy-ma’naviy qadriyatlar, milliy mentalitet va folklor unsurlari psixologik tasvirning markazida turadi.

Demak, badiiy psixologizm har ikki ijodkor ijodida fantastik voqelikni haqqoniyashtiruvchi muhim komponent boʻlib xizmat qiladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik yondashuvi orqali Rey Bredberi va Hojakbar Shayxov ijodida badiiy psixologizm fenomeni ikki turli adabiy muhitda umumiy va oʻziga xos tomonlarga ega ekani yaqqol koʻrinadi. Har ikki yozuvchi fantastik asarlarning badiiy-estetik qimmatini inson ruhiyatini tasvirlash orqali ochishga intilgan. Bredberining asarlarida “inson ongining erkinligi va shaxsning texnokratik jamiyatga qarshi kurashi” [8:214] markaziy oʻrin egallasa, Shayxov ijodida milliy mentalitet, diniy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan ruhiy tasvirlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bredberi qahramonlari ichki monolog, tush va ong oqimi vositalarida tasvirlanib, “insoniyatning texnologiyaga qaram boʻlib qolishi oqibatida yuzaga keladigan ruhiy parokandalikni” [9:112] ifodalaydi. Shayxov esa folklorik va diniy timsollar orqali qahramon ruhiyatini milliy ruhiy olam kontekstida yoritadi. Bu jihatdan ularning asarlarida umumiylik ham mavjud: ikkalasi ham fantastik tasvir



“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TADQIQIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya



vositalaridan foydalanib, “odamzodning ichki dunyosini haqqoniy aks ettirishga intiladi” [10:123].

Shuningdek, ayol obrazining psixologik talqini ham ularni yaqinlashtiradi. Bredberida ayol obrazlari jamiyatdagi insoniy qadriyatlarni himoya qiluvchi kuch sifatida ko‘rsatilsa, Shayxovda ular milliy-ma’naviy muhitni ifodalovchi ruhiy timsollarga aylanadi. Bu, o‘z navbatida, “fantastik asarlarning estetik qiymatini yanada oshiradi va ularni universal insoniy muammolarni yoritishda samarali vosita sifatida shakllantiradi” [11:141].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy psixologizm fenomeni fantastik janrda qahramon ruhiyati tasvirining muhim metodologik omili bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat individual ruhiy jarayonlarni ochadi, balki insoniyatning umumiy muammolarini – ma’naviyat inqirozi, texnologiya xavfi, qadriyatlar yo‘qolishi va ruhiy iztiroblarni yoritishda ham alohida estetik ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, Bredberi va Shayxov ijodi qiyosiy adabiyot uchun boy nazariy-amaliy material bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2013. 123-Б.
2. Шодиев Н. Рухият рассоми. – Тошкент: Фан, 1977. Б.30.
3. Золотухина О. Психологизм в литературе: пособие по спецкурсу для студ. – Гродно. – ГрГУ, 2009. 5 с.
4. Умуров Х. Психологизм проблемаси ва ўзбек романи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Т.: 1983. 115 Б.
5. Bloom H. (ed.). Ray Bradbury’s Fahrenheit 451. – New York: Bloom’s Literary Criticism, 2008. – 47 p.
6. Новикова В. Фантастическая новелла Р. Брэдбери. Автореф. канд. филол. наук Нижний Новгород. 1992. 15 с.
7. Қўчимов У.Қ. Фантастик асарларда бадий психологизм концепцияси (Рэй Брэдбери ва Ҳожиакбар Шайхов ижоди мисолида): диссертация ... филол. фан. фалс. докт. – Тошкент, 2021. – 102 б.
8. Bloom H. (ed.). Ray Bradbury’s Fahrenheit 451. – New York: Bloom’s Literary Criticism, 2008. – 214 p.
9. Freedman C.H. Critical Theory and Science Fiction. – Middletown, Conn.: Wesleyan University Press, 2000. – 206 p.
10. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент: Академнашр, 2013. 123-Б.
11. Қўчимов У.Қ. Фантастик асарларда бадий психологизм концепцияси (Рэй Брэдбери ва Ҳожиакбар Шайхов ижоди мисолида): диссертация ... филол. фан. фалс. докт. – Тошкент, 2021. – 141 б.